

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING TAYANCH BILIMLARI MODULIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining tayanch bilimlari moduli talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli qarori qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli **“Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi”** qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining tayanch bilimlari moduli

1. Ta’lim – tarbiya jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash;
2. Maktabgacha pedagogika;
3. Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi;
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi;
5. Maktabgacha ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Ta'lim – tarbiya jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash	Maktabgacha ta'lim sohasiga oid huquqiy-meyooriy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi, O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish, bola rivojlanishining barcha sohalarini hisobga olgan holda faoliyatini rejalashtirish, davlat o'quv dasturi bo'yicha ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda kompetensiyaviy yondoshuvni qo'llash, MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanish markazlarni tashkil etish, Tarbiyachining ish hujjatlarini tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
2	Maktabgacha pedagogika	Maktabgacha pedagogikaning maqsad va vazifalari, pedagoglik kasbi va uning kasbiy kompetensiyalari, -maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati ekanligi, MTTning hamkorlik ishlari, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash mazmuni va mohiyati tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	48 %	19 ta
3	Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi	Ilk yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasining o'ziga hos xususiyatlari, ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyalash vazifalarini, kun tartibini tashkil etish, go'daklik va ilk yoshdagi bola psixikasi va rivojlanishi, MTTda va oilada ilk yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish mazmuni, bolalarda madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, uch yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, ilk yoshda sensor tarbiyalash usullari, ilk yoshdagi bolalarda ta'lim-tarbiya berishda o'yinlar, didaktik o'yinlar o'tkazish, ilk yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini "Ilk va	12 %	5 ta

		maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ga asoslanib ishlar tashkil etishda sohalari talablarini o'rganish, MTT va oilada ilk yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tartibi va talablarini bilishi.		
4	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi	Psixologiya, bolalar psixologiyasining fanining predmeti, tarmoqlari, metodlari mazmuni, shaxs psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar, MTTda ziddiyatli holatlar, faoliyat turlari, shaxsning psixik jarayonlari, holatlari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalar psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlari, maktabgacha yoshda bola bola shaxsining shakllanishi, bolalarni maktabdagi ta'lim jarayoniga psixik jihatdan tayyorlash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	12 %	5 ta
5	Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari	Innovatsion ta'lim texnologiyalari tushunchasi, uning ta'riflari, metodikadan farqi, horijiy davlatlarning ilg'or pedagogik tajribalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8 %	3 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. F.I.Haydarov, N.I.Halilova Umumiy psixologiya. Toshkent-2017 yil
2. E.G'oziyev. "Psixologiya" Darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008.
3. V.M.Karimova Psixologiya Toshkent-2002
4. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-Faylasuflar-2013, 2017.